

LOBAR BEKTOSHOVA

QAYDASAN,
BAHORIM

SHE'RLAR

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2009

Lobar Bektoshova she'rlarida beg'ubor tuyg'ular bor. Yosh qalamkash o'zi bilgan, o'zi his etgan tuyg'ularni qog'ozga tushiradi. Aksariyat she'rlarida ota-ona mehri, atrofda ro'y berayotgan voqealarga samimiy munosabat aks etib turishi shundan.

Lobarning she'rlari muxlislarga, ayniqsa, o'z tengdoshlariga yoqadi, deb umid qilamiz.

ISBN 978-9943-08-390-5

© L.Bektosheva. «Qaydasan, bahorim», «Yangi asr avlodi», 2009-yil.

DUNYO MANZARASI

Dunyoni bir chetdan tomosha qilsang,
Undan ko‘rinadi muhabbat, nafrat.
Hayot kitobidan o‘qigan bo‘lsang,
Unda ko‘rinmaydi birorta shafqat.

Do‘stlarim, dunyoni ko‘ring holicha,
Rango-rang qilmang, buzhang, bo‘yamang.
Rizqimni teraman endi boricha,
Siz mendan, azizim, baxtni so‘ramang.

Muhabbat – gullarning tong chog‘ida
Yuziga qo‘ngan shabnamdir, bilsang.
Nafrat – adovatning qora bog‘iga
Zulmat cho‘kkan tundir, ko‘rolsang.

KEL, DO‘STIM

Sarobga aylangan orzudir bari,
Yolg‘onga aylangan yog‘udir bari.
Yig‘lagim kelar yig‘lagan sari,
Qani kel, do‘stginam, ko‘z yoshimni art.

Eshitdim nelarni, kulgu ko‘rmdim,
Do‘stim, bu dunyoda do‘stni ko‘rmdim.
Sevgi ila mehr-u vafu ko‘rmdim,
Qani kel, do‘stginam, ko‘z yoshimni art.

Sog‘inchni ergashtirma – dil o‘rtanar,
Tog‘ga qor yog‘masa tog‘lar uyalar.
Ko‘zlarimda mungli qo‘shiq navosi yangrar,
Qani kel, do‘stginam, ko‘z yoshimni art.

VAQT O‘TGAN BO‘LADI

Osmonni to‘ldirib uchsa turnalar,
Demak, xazon kuzdan bermoqda darak.
Yana kuzmi, deya ko‘ngil tirlalar,
Boshida xazondan g‘amgin chamberak.

Men seni yana yo‘qotdim shu dam,
Gullarning bargida asragan baxtim.
Menga qilmaydimi barchasi alam,
Shamolga uchdi-ku hislarim – shaxtim.

Hech biri arzimas to‘kkan yoshimga,
Vaqt ham to‘xtovsiz o‘tib boradi.
Axir kelishing bor bir kun qoshimga,
Bilsang, o‘shanda vaqt o‘tgan bo‘ladi.

XAYOLAT

Shamollar bag‘rida qilaman parvoz,
Xayollarim uchar moviy ocmonda.
Ko‘nglimni chulg‘aydi yoqimli ovoz,
Jaranglar, kuylar ham qay tomonimda.

Shamolning kuyiga mahliyo bo‘lib,
Xayoldan ketadi chekkan alamlar.
Quvonchdan sig‘mayin daryodek to‘lib,
Mangu xotiradir, bilsang, u damlar.

Lobar, xayollarga berilma gohi,
Yuragim qiynaydi shu ishqning nozi.
Har bir insonning bo‘lsin panohi,
Ey do‘stim, bu dunyo – tosh-u tarozi.

TUN

Tunning og‘ushiga otgum o‘zimni,
Zulmat onasiga bo‘lib mehribon.
Bu tun izlayman baxtim kitobidan,
Titkilab bisotimdan shirin so‘zimni.

Singib borarman-u ona zaminga,
Nahot to‘shagimga aylansa tuproq!
Afg‘on shamolidek yana yonimda
Tinch qo‘ymay aylanar alamli titroq.

Yolg‘on-u yashiqlardan qo‘rqaman men,
Qo‘rqaman tushimda hatto soyamdan.
Yig‘latib ketadi tunlari ba‘zan
Xasta yuragimni tilkalab hijron.

YASHAMOQ YAXSHIDIR, DO‘STIM

O‘zganing baxtiga ko‘zingni suzib,
Izlama dunyoni dunyodan kechib.
To‘ydim demagin sevishdan bezib,
Yashamoq yaxshidir dunyoda, do‘stim.

Dunyoning nimasi ko‘p – alamlari ko‘p,
Yaxshi do‘st ummonidan yomonlari ko‘p,
Orzu osmonidan armonlari ko‘p,
Yashamoq yaxshidir dunyoda, do‘stim.

O‘zganing g‘amidan sevinsalar gar,
Do‘st bo‘lib dushmanlik qilsalar agar,
Yomondan hamma ham qocharlar, bezar,
Yashamoq yaxshidir dunyoda, do‘stim.

QAYDASAN, BAHORIM

O'rtasa qalbimni shirin iztirob,
Jonim og'riyverar o'ylaganim chog'.
Yuragim yig'lasa bo'larman xunob,
Gulidan ayrilgan bamisli yaproq.

O'zinga bo'ysunmas hatto nigohim,
Ko'zim uzoqlardan kimnidir izlar.
Shunchalar ko'pmikin, ayting, gunohim,
Sog'inchim bezagan hissiz alamlar.

Oppoq bulutlarga aytar so'zim bor,
Quyosh eshitmasin, shamol sezmasin.
She'rlarim doyasi asli shu bahor,
Bahor. Kuzda xazon bog'ni kezmasin.

Hali men qaytarman she'r bo'lib bir kun,
O'tinchimni ayting bahorga takror.
Qaytaman, qizg'aldoq ochilsa gulgun,
Bahor, sendan bo'lak kimim bor, aytgin!?

YOSHLIK

Mahzun chehrang, ma'yus nigohing,
Falaklarga yetdimi ohang?
Yuragimda bir sening noming,
Xayr endi, mening, xayr, yoshligim mening!

Xayr, yoshligim, dildagi ohim,
Bolalikning shodon kunlari.
Xayr, yoshligim, bedor xayolim,
Bolalikning go'zal onlari.

Qizg'aldoq umridek o'tadi yoshlik,
Xayr deyishga ham topolmay fursat.
Sabrimni sinama, ey taqdir,
Xayr, bolalik, alvido, yoshlik!

MEHRLIBO‘LING

Osmoningizdan ham ketar bo‘lsa oy,
Sizni kutmay balki botadi oftob.
Yurak qaringizda asragan mehrni
Ulashing do‘stga ham, begonaga ham.

Biz erta bormizmi foniyl dunyoda,
Sizda bori faqat mehr-u muhabbat.
Savob ham qilingiz bir kam dunyoda,
Uzilsa-da yotmasin mehr-u muhabbat.

Hayot mazmuni bu boylikda emas,
Mehr-u oqibatsiz yashamoq – gunoh.
Yuraklar tosh qotsa, adolat emas,
Shunchalar diydangiz qattiqmi, ey voh!

QIZG‘ALDOG‘IM

Qizg‘aldog‘im, kelarsan sen bahorda,
Ruxsoringga to‘yolmay men firoqda.
G‘animlarim ovutadi qalbimni,
Dardim aytay desam, sen ham yiroqda.

Qorlar o‘par endi sening tovoning,
Xazonlarga o‘rar bo‘ldi yaprog‘ing.
Ne qilay endi, meni kechir, gulim,
Shamol silar endi sening yaprog‘ing.

Yaprog‘ing xazon bo‘ldi tutganimda,
Dudog‘ing qon yig‘ladi o‘pganimda.
Lobar, senga yetolmadi bu bahor,
Qizg‘aldog‘im o‘kinma men o‘tganimda.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/1675> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1675> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1675>